

**O‘ZBEKISTION TARIXINI O‘RGANISH BO‘YICHA XALQARO
ARXEOLOGIK EKSPEDITSIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Sultonova Aziza Uktamovna
BuxDPI tadqiqotchisi**

O‘zbekiston Respublikasi tarixiy ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha nufuzli xalqaro tashkilot va jamg‘armalar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ulardan biri YUNESKOdir. 1993-yil 26-oktabrdan O‘zbekiston YUNESKOning to‘la huquqli a‘zosiga aylandi. Buning natijasida O‘zbekistonning insoniyatning qadimiy sivilizatsiyasi, uning madaniy va tabiiy meros ob‘ektlarini aks ettiruvchi ko‘plab tarixiy yodgorliklar bugungi kunda YUNESKOning butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bular – Ichan qal‘a (1990-yil), Buxoro arki (1993-yil), Shahrirabz tarixiy obidalari (2000-yil) va Samarqand – madaniyatlar kesishgan joy (2001-yil).

1995-yil 5-iyulida 1987-yilda boshlangan YUNESKOning “Ipak yo‘li – muzokara yo‘li” butun jahon dasturi doirasida Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqoti Xalqaro instituti (MOTXI) tashkil qilindi. Uning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlarini, an‘analari madaniyati tarixini o‘rganish, shuningdek, ilmiy ishlar nashr qilish, bu sohada seminar, simfozium va anjumanlar o‘tkazishdan iboratdir. O‘zbekistondan tashqari bu tashkilotga Armaniston, Eron, Xitoy, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Mo‘g‘uliston, Pokiston, Tojikiston va Turkiya davlatlari ham a‘zo bo‘lib kirgan edi. MOTXIning birinchi direktori etib O‘zbekiston vakili mashhur olim Ashraf Ahmedov tayinlandi.

YUNESKO tashabbusi ostida mashhur sanalar Abu Ali ibn Sino(1980-yil) va Abu Rayhon Beruniylarning 1000 yilligi (1973-yil), Muso al-Xorazmiyning 1200 yilligi(1983-yil), Mirzo Ulug‘bekning 600 yilligi(1994-yil, Parij, Toshkent, Samarqand), Amir Temurning 660 yilligi(1996-yil, Parij, Toshkent, Shahrisabz), Buxoro va Xiva shaharlarining 1500 yilligi(1997-yil), Al-Farg‘oniyning 1200 yilligi(1998-yil), buyuk hadisshunos olim Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi(1998-yil), “Alpomish” xalq etnosi yaratilishining 1000 yilligi(1999-yil, Toshkent), zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” yaratilishining 2700 yilligi(2001-yil, Toshkent), Termiz shahrining 2500 yilligi(2000-yil, Termiz), Shahrisabz shahrining 2700 yilligi(2002-yil, Shahrisabz), Qarshi shahrining 2750 yilligi(2006-yil, Qarshi) nishonlangan edi. 2000 yil Sharqshunoslik instituti jamg‘armasi dunyoning eng boy qo‘lyozmalar xazinalaridan biri sifatida YUNESKO tashkilotining “Butun jahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritildi.

1994–yil O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti va Fransiya Ilmiy Tadqiqot Milliy markazi bilan hamkorlik shartnomasi imzoladi. Mazkur

shartnomaga ko'ra, 1994-yildan boshlab O'zRFA Arxeologiya instituti Fransiya Ilmiy tadqiqotlar milliy markazining direktori Exol Narmol Suprel bo'ldi. Natijada arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ekspeditsiya a'zolari Eski Termiz yodgorliklari majmuida keng ko'lamli arxeologik tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar.

1998 – yil O'zRFA arxeologiya instituti va Yaponiyaning “Buyuk Ipak Yo'li” xalqaro akademiyasi o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolaniib, ushbu shartnomaga asosan O'zbekiston-Yaponiya arxeologlari tomonidan Qoratepada arxeologik ekspeditsiya tashkil etildi. Mazkur ekspeditsiya a'zolari tomonidan Qoratepa buddaviylik monastirlari majmuida tadqiqotlar olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi arxeologiya instituti 1991 – yilda Rossiya davlat Ermitaj muzeyi bilan aloqalar o'rnatib, O'zbekistonning Buxoro vohasida bundan 1000 yillar oldin qum ostida qolgan Poykand yodgorligida arxeologik tadqiqot ishlari olib bordilar. 1993–yildan buyon O'zRFA XFAA ga a'zo bo'lib, (shtab kvartira Ukrainaning Kiyev shahrida joylashgan) sharqiy Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi 15 ta fanlar akademiyasi bilan XFAA ning turli tadbirlarida faol ishtirok etmoqda.

Samarqand viloyati arxeologiya instituti xalqaro tashkilotlar ajratgan grandlar va mablag'lar bo'yicha Boloniya universiteti (Italiya), Buyuk Ipakyo'li akademiyasi (Yaponiya), Barselona universiteti (Ispaniya), Fransiya oliy tadqiqotlar ilmiymarkazi Luvr muzeyi (Parij) bilan hamkorlikda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda yosh istedodli kadrlarni tayyorlash maqsadida 2003–yilda yurtimizda birinchi marta Samarqand davlat universitetida Italiyaning Boliniya universiteti bilan hamkorlikda “Arxeologiya”, tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot metodlari “Muzeyshunoslik konsertatsiyasi va badiiy boyliklarni saqlash” mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma magistratura yo'nalishlari tashkil etilgan.

Boloniya universiteti restavratsiya fakulteti dekani professori A.Ranainno, shu universitet tarixshunos olimi arxeologiya departamenti boshlig'i professor M.Tozi, Rim universiteti professori A.Cherteto va S.Messinolar talabalarga arxeologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik, muzeyshunoslik va badiiy boyliklarni saqlash fanlaridan ma'ruzalar o'qib berdilar. 2011–yil 6–noyabr kuni qo'shma magistraturaning yuqorida qayd etilgan mutaxassisliklari bo'yicha bitirgan ilk magistratlarga Boloniya universiteti diplomlarini universitet rektori T.Sharipov va Italiyalik olim S.Messinolar tantanali ravishda topshirdilar.

2013–yil 15–fevralda O'zR FA Tarix instituti va Germaniya xalq universitetining filiallari o'rtasida tarixiy ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish yuzasidan ikki tomonlama hamkorlik shartnomasi imzolandi. 2006-yildan O'zR FA Tarix instituti qoshida Germaniya xalq universitetlari uyushmasining xalqaro hamkorlik instituti

(DYY International) homiyligida “og’zaki tarix markazi” faoliyat yuritmoqda. Mazkur markaz og’zaki uslubi asosida qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilmoqda.

Respublikamiz tarixi to’g’risida olib borilayotgan tadqiqotlar nashr etilayotgan ilmiy risolalarini chop etilishida mahalliy va xalqaro jamg’armalarning o’rni ham katta, jumladan arxeolog olimlar I.Botirov va T.Annayevlar tomonidan 2002-yilda o’zbektilida chop etilgan “Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi” deb nomlangan risola Germaniyaning Konrad Adenauer fondining vakolatxonasi homiyligida nemis tilida chop etildi. “O’zbekiston san’ati va madaniyati forumi” jamg’armasi va bir qator institutlar, nodavlat tashkilotlar hamkorligida vatanimizning buyuk o’tmishi, ma’naviy merosimizning mukammal o’rganishi maqsadida muqaddas qadamjolarga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish, ulardan olingan xulosalarni kitob xolida nashr etish, merosimizni jahon miqyosida targ’ib-tashviq etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilgan. “Sharq xattotlik va miniatyura san’atidan na’munalar” va E.Rutveladzening “O’zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar” kabi rangli foto kitob albomlari shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy merosimizga nisbatan xalqaro jamoatchilikning qiziqishi yuqori. Tarix sohasida xalqaro hamkorliklarni amalga oshirish va rivojlantirish maqsadida davlatimiz tomonidan ko’plab xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini olib borish yuzasidan bitimlar, kelishuv memorandumlari va shartnomalar imzolanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
2. Ислон Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: “Ўзбекистон”, 1998.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2022.
4. Ртвеладзе Э.В. Ўзбекистон археологияси тарихи. – Т.: “Фан”, 2004.
5. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. История археологических исследований в Узбекистане. – Т.: “Фан”, 1990.
6. Сагдуллаев А.С. Давлатчиликнинг илк шакллари ва қадимги маданиятлар. – Т.: “Фан”, 2001.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: “Издательство Академии Наук СССР”, 1948.
8. Ширинова З. Хоразм археологик мактаби ва унинг халқаро аҳамияти. – “Ўзбекистон археологияси” журнали, №3, 2015.
9. Пидаев Ш. Археологические исследования в Самарканде и его окрестностях. – Т.: “Фан”, 2007.

10. Berdimuradov A. International Archaeological Expeditions in Central Asia. – Tashkent: “University Press”, 2010.
11. Ruzmetov K. Collaborative Archaeology in Uzbekistan: A Historical Overview. – “Central Asian Studies Journal”, Vol. 5, 2018.
12. UNESCO. Preservation and Study of the Archaeological Heritage of Uzbekistan. – Paris: UNESCO Publishing, 2001.
13. Masson M.E. The Ancient Cultures of Central Asia: Their Development and Interaction. – Moscow: Nauka, 1981.
14. Askarov A. O‘zbekiston hududidagi ilk dehqonchilik madaniyatlari. – T.: “Fan”, 1992.
15. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.